

**XII. KORXONA VA TASHKILOTLAR
FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI**
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)
**(Adliya boshqarmasi huzuridagi Davlat xizmatlari markazlari
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)**

Korxona va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2023- yilning 1- oktabr holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 40 655 taga etdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlar soni 27 877 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 68,6 % ni tashkil qildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning asosiy ulushi Namangan shahri (32,4 %), Chust (8,0 %), Uchqo'rg'on (6,6 %) va Uychi (6,5 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


**Ro'yxatga olingan va faoliyat ko'rsatayotgan korxona va
tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**

(2023- yilning 1- oktabr holatiga)

	Ro'yxatga oligan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
Viloyat jami	40 655	100,0	27 877	100,0
Namangan sh.	13 178	32,4	8 601	30,9
Mingbuloq	1 863	4,6	1 320	4,7
Kosonsoy	2 500	6,1	1 674	6,0
Namangan t.	2 599	6,4	1 754	6,3
Norin	2 084	5,1	1 426	5,1
Pop	2 559	6,3	2 047	7,3
To'raqo'rg'on	2 593	6,4	1 865	6,7
Uychi	2 624	6,5	1 702	6,1
Uchqo'rg'on	2 666	6,6	1 938	7,0
Chortoq	2 547	6,3	1 727	6,2
Chust	3 275	8,0	2 342	8,4
Yangiqo'rg'on	2 167	5,3	1 481	5,3

Ro‘yxatdan o‘tgan sub’yektlarning hududlar bo‘yicha ulushi, % da

(2023-yilning 1- oktabr holatiga)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ro‘yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo (jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning (32,5 %)), sanoat (20,6 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (8,5 %) hamda qurilish (6,6 %) sohalariga to‘g‘ri keladi.

Ro‘yxatdan o‘tgan tijorat korxonalari iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha

(2023-yilning 1- oktabr holatiga)

	Ro‘yxatga olingan		Faoliyat ko‘rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	Birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
Jami	36 031	100,0	23 566	100,0

shu jumladan:


qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	3 414	9,5	2 004	8,5
sanoat	8 369	23,2	5 083	21,6

	Ro'yxatga olningan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	Birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
Qurilish	2 667	7,4	1 655	7,0
savdo	13 210	36,7	9 109	38,7
tashish va saqlash	1 391	3,9	992	4,2
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 924	5,3	1 286	5,5
axborot va aloqa	543	1,5	357	1,5
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	755	2,1	619	2,6
boshqa turlari	3 758	10,4	2 461	10,4

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2023-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)






Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Mas'uliyati cheklangan jamiyat deb, bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis xujjalari bilan belgilab qo'yilgan miqdorlardagi ulushlarga bo'lingan jamiyat tan olinadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatları bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamoat faoliyati bilan bo'lib zarar uchun o'zlar qo'shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatları bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining doirasida solidar javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek "mas'uliyati cheklangan" degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak.

Oilaviy korxonalar soni

(2023-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




- Ro'yxatdan o'tgan
- Faoliyat ko'rsatayotgan
- Yangi tashkil etilgan

Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2023 yil 1 oktabr holatiga ko'ra 1 449 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 46 taga yoki 3,3 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 966 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 347 taga yoki 73,6 foizni tashkil etdi.

2023 yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 125 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 131 taga yoki 48,8 foizni tashkil etganligini ko'rish mumkin.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining
hududlar kesimida soni**
(2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni
(2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2023 yil 1 oktabr holatiga ko'ra 27 531 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 3 102 taga yoki 12,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 18 173 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 5 253 taga yoki 77,6 % ni tashkil qilganligini ko'rish mumkin.

2023 yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3 322 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 286 taga yoki 92,1 % ni tashkil qilganligini ko'rish mumkin.



**Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan
jamiyatlarining hududlar kesimidagi soni
(2023-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)**

Namangan sh.	6 067
Pop	1 358
Chortoq	1 285
Uchqo‘rg‘on	1 279
Uychi	1 168
Chust	1 125
Kosonsoy	1 113
Namangan	1 079
To‘raqo‘rg‘on	1 059
Norin	960
Yangiqo‘rg‘on	952
Mingbuloq	728


2023 yil 1 oktabr holatiga ko‘ra mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning asosiy qismi Namangan shahri 6 067 ta (jamidagi ulushi 33,4 %), Pop 1 358 ta (7,5 %), Chortoq 1 285 (7,1 %), Uchqo‘rg‘on 1 279 ta (7,0 %), Uychi 1 168 ta (6,4 %), Chust 1 125 ta (6,2 %), Kosonsoy 1 113 ta (6,1 %), Namangan 1 079 ta (5,9 %), To‘raqo‘rg‘on 1 059 ta (5,8 %) xissasiga to‘g‘ri keladi.

Aksincha eng kam Mingbuloq 728 ta (4,0 %), Yangiqo‘rg‘on 952 ta (5,3 %) tumanlari xissalariga to‘g‘ri keladi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi korxonalari jamiga nisbatan ulushi, foizda



Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxona va tashkilotlari
soni bo'yicha ma'lumotlar, birlikda




**Ro‘yxatga olingan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**
(2023- yilning 1- oktabr holatiga)

	Ro‘yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
Jami	40 655	100,0	27 877	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	3 440	8,5	2 030	7,3

	<i>Ro'yxatga oltingan</i>		<i>Faoliyat ko'rsatayotgan</i>	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, % da</i>	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, % da</i>
sanoat	8 371	20,6	5 084	18,2
qurilish	2 682	6,6	1 669	6,0
savdo	13 215	32,5	9 111	32,7
tashish va saqlash	1 392	3,4	993	3,6
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 926	4,7	1 288	4,6
axborot va aloqa	579	1,4	389	1,4
sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	847	2,1	706	2,5
boshqa turlari	8 203	20,2	6 607	23,7


**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**
(2023-yilning 1- oktabr holatiga)




Korxona va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko‘rsatayotgan subyektlarning ulushi 68,6 % ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko‘rsatmayotganlarning ulushi 31,4 % ni tashkil etganligini ko‘rsatmoqda, bu ko‘rsatkich yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 26,8 foiz oshgan.

**Korxona va tashkilotlarning umumiy sonidan faoliyat
ko‘rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da**

01.10.2022- yil



01.10.2023- yil




Faoliyatsizlar

Faoliyat ko‘rsatayotganlar

2023- yil 1- oktabr holatiga 23 566 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, shundan xususiy korxonalar – 4 108 ta, oilaviy korxonalar –966 ta, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar – 18 173 tani va 319 tani boshqa tijorat korxonalari tashkil etadi.

**Faoliyat ko‘rsatayotgan yuridik shaxslar va xo‘jalik yurituvchi
subyektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo‘yicha
taqsimlanishi, birlikda**


01.10.2022 yil **01.10.2023 yil**



2023-yil yanvar-sentabr oylarida jami 3 736 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 86,9 foizni tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Namangan shahri (945 ta), Uchqo'rg'on (347 ta), To'raqo'rg'on (308 ta), Chortoq (305 ta), Pop (264 ta), Mingbuloq (259 ta), Chust (234 ta), Uychi (233 ta), Kosonsoy (227 ta), Namangan (210 ta) tumanlariga to'g'ri keladi. Eng kami esa, Norin (208 ta) va Yangiqo'rg'on (196 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.

**Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va
tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, birlikda
(2023-yilning 1- oktabr holatiga)**



**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda
(2023-yilning 1- oktabr holatiga)**



**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda
(2023-yilning 1-oktabr holatiga)**

• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

671



• Yashash uchun joy bilan ta'minglangan holda parvarishlash

18




• Yashash uchun joy bilan ta'minglanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

17



Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot, birlikda


■ 2022 y. ■ 2023 y.



Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona

va tashkilotlarning soni, birlikda

(2023-yilning yanvar-sentabr oylarida)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning ulushi savdoda 38,1 %, sanoatda 20,0 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 10,8 %, qurilishda 4,4 % ni tashkil etadi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning


ijtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

(2023-yilning yanvar-sentabr oylarida)



2023- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

53,8 %



Sanoat

7,6 %



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

17,7 %



Savdo

17,9 %




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

1,8 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar

1,2



Boshqa turlar

2023- yil 1- oktabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni 23 409 tadan ortiqni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2022 yil mos davriga nisbatan 74,5 % tashkil qilgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy qismi, ya'ni 7 279 tasi (jami subyektlarning 31,1 %) Namangan shahriga, 1 999 tasi (8,5 %) Chust, 1 698 tasi (7,3 %) Pop, 1 659 tasi (7,1 %) Uchqo'rg'on, 1 427 tasi (6,1 %) Uychi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam faoliyat ko'rsatayotganlar esa 1 074 tasi (4,6 %) Mingbuloq, 1 169 tasi (5,0 %) Norin, 1 180 tasi (5,0 %) Yangiqo'rg'on, 1 3681 tasi (5,9 %) Kosonsoy tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Namangan viloyatining 2023-yil yanvar-sentabr oylarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining hududlar bo'yicha soni

	2022- yil 1- oktabr holatiga		2023- yil 1- oktabr holatiga	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
Viloyat jami	31 442	100,0	23 409	100,0
Namangan sh.	10 393	33,1	7 279	31,1
Mingbuloq	1 367	4,4	1 074	4,6
Kosonsoy	1 929	6,1	1 381	5,9
Namangan t.	2 122	6,7	1 509	6,4
Norin	1 601	5,1	1 169	5,0
Pop	1 927	6,1	1 698	7,3
To'raqo'rg'on	1 971	6,3	1 581	6,8
Uychi	2 047	6,5	1 427	6,1
Uchqo'rg'on	1 993	6,3	1 659	7,1
Chortoq	1 907	6,1	1 453	6,2
Chust	2 577	8,2	1 999	8,5
Yangiqo'rg'on	1 608	5,1	1 180	5,0

Faoliyat ko'rsatayotgan jami 23 409 ta kichik tadbirkorlik subyektlarining 9 082 tasi (38,8 %) - savdoda, 5 034 tasi (21,5 %) - sanoatda, 1 992 tasi (8,5 %) - qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi, 1 646 tasi (7,1 %) - qurilishda, 1 282 tasi (5,5 %) – yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 988 tasi (4,2 %) - tashish va saqlashda,

613 tasi (2,6 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 357 tasi (1,5 %) - axborot va aloqa sohasida shuningdek, 2 415 tasi (10,3 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da
(2023-yilning 1- oktabr holatiga)**



2023-yil yanvar-sentabr oylarida jami 3 614 ta kichik tadbirkorlik subyektlari yangi tashkil etilgan bo‘lib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 88,0 foizni tashkil etgan.

Eng ko‘p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Namangan shahri (909 ta), Uchqo‘rg‘on (344 ta), Mingbulloq (254 ta), To‘raqo‘rg‘on (302 ta), Pop (252 ta), Chortoq (291 ta), Kosonsoy (215 ta), Uychi (231 ta) va Chust (224 ta) tumanlariga, eng kam tashkil etilganlari esa, Namangan, Norin (203 tadan) va Yangiyo‘rg‘on (186 ta) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining hududlar bo‘yicha soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng ko‘p tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar savdoda (1 425 ta), sanoatda (692 ta), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (381 ta), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda (187 ta) hamda qurilishda (168 ta) tashkil etilgan. Eng kami esa, sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (79 ta), axborot va aloqada (89 ta) tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash asosida ularning ishlab chiqarish faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha ishlar yetarli darajada tashkil etilmaganligi sababli, faoliyat ko‘rsatmayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ro‘yxatga olinganlarning umumiy soniga nisbatan ulushi yuqori bo‘lmoqda.

Jumladan, 2023-yilning 1-oktabr holatiga Namangan viloyatida jami ro‘yxatdan o‘tgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiy sonida faoliyat ko‘rsatmayotganlarning ulushi 34,7 % ni (12 434 ta) tashkil qilgan, ularning soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 11 027 taga ko‘paygan.

Hisobot davrida 1 535 ta kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati tugatilgan bo‘lib, ularidan 1 187 tasi (jami faoliyati tugatilganlarning 77,3 %) ixtiyoriy tugatilgan.

**Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da
(2023- yil yanvar-sentabr)**




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar. 2023- yil 1- oktabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 212 tani tashkil etgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 92 taga yoki 69,7 % ni tashkil etdi. Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 117 tasi qo'shma korxonalar, 95 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

**Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo‘shma
korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda
(2023- yilning 1- oktabr holatiga)**

Xorijiy korxonalar
95

Jami
212

Qo‘shma korxonalar
117



**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan
korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda
(2023- yilning 1- oktabr holatiga)**



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Namangan shahar 83 ta (39,2 %), Pop 28 ta (13,2 %), Kosonsoy 16 ta (7,5), Chust 19 ta (9,0 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida korxonalar Mingbuloq 3 ta (1,4 %), Norin va To'raqo'rg'on 7 tadan (3,3 % dan) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi

korxonalarining hududlar bo'yicha soni va ulushi

(2023-yilning 1- oktabr holatiga)

	birlik	Jamiga nisbatan ulushi % da
Viloyat jami	212	100,0
Namangan sh.	83	39,2
Mingbuloq	3	1,4
Kosonsoy	16	7,5
Namangan t.	10	4,7
Norin	7	3,3
Pop	28	13,2
To'raqo'rg'on	7	3,3
Uychi	14	6,6
Uchqo'rg'on	6	2,8
Chortoq	11	5,2
Chust	19	9,0
Yangiqo'rg'on	8	3,8


Faoliyat ko'rsatayotgan 212 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 96 tasi (45,3 %) sanoat, 50 ta (23,6 %) savdo, 19 ta (9,0 %) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, 11 tasi (5,2 %) qurilish, 6 tadan (2,8 % dan) tashish va saqlashda hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 5 tasi (2,3 %) sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 18 tasi (8,5 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa, tashish va saqlash hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi
(2023- yilning 1- oktabr holatiga)**

	birlik	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Jami	212	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	19	9,0
sanoat	96	45,3
qurilish	11	5,2
savdo	50	23,6
tashish va saqlash	6	2,8
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	2,8
axborot va aloqa	1	0,5
sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	5	2,3
boshqa turlari	18	8,5

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy
kapital ishtirokidagi korxonalarning ulushi, % da
(2023- yilning 1- oktabr holatiga)



2023- yil yanvar-sentabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi ro‘yxatdan o‘tgan yangi korxonalarning soni 31 tani tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3 taga yoki 10,7 foizga ko‘paygan.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi – 14 ta, Rossiya Federatsiyasi – 6 ta, Turkiya, Janubiy Koreya – 3 tadan, Tojikiston – 2 ta, Qozog‘iston, Polsha Respublikalari, Birlashgan Arab Amirligi hamda Buyuk Britaniyalardan – 1 tadan yangi korxonalar ro‘yxatdan o‘tgan.


Viloyatdagi 31 ta yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Namangan shahar (15 ta), Pop (4 ta), Chortoq va Chust (3 tadan), Kosonsoy (2 ta), Norin, To‘raqo‘rg‘on, Uychi va Yangiqo‘rg‘on (1 tadan) tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi. Mingbuluoq, Namangan va Uchqo‘rg‘on tumanlarida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilmagan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
hududlar kesimidagi soni va ulushi
(2023-yil yanvar-sentabr)**


	birlik	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Viloyat jami	31	100,0
Namangan sh.	15	48,4
Mingbuloq	-	-
Kosonsoy	2	6,5
Namangan t.	-	-
Norin	1	3,2
Pop	4	12,9
To‘raqo‘rg‘on	1	3,2
Uychi	1	3,2
Uchqo‘rg‘on	-	-
Chortoq	3	9,7
Chust	3	9,7
Yangiqo‘rg‘on	1	3,2

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, asosan sanoat va savdoda 11 tadan, tashish va saqlashda 3 ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 2 ta, qurilish, yashash va ovqatlanish, axborot va aloqa hamda boshqa xizmatlar ko‘rsatishda 1 tadan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda
(2023- yil yanvar-sentabr)**



2023- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Oilaviy korxonalar. Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni, 2023- yil 1- oktabr holatiga 1 453 tani tashkil etib, ulardan 966 tasi yoki 66,5 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan davlat ro'yxatidan o'tganlarning umumiy soniga nisbatan o'rtacha 27,1 % ga oshganligini ta'kidlash mumkin.